

Saidiy Said Bolta-Zoda
Navoiy davlat universiteti
musiqiy ta'lim kafedrası professori,
san'atshunoslik fanlari nomzdi

Inatullayev Ma'rufjon Nodirjon o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
musiqiy ta'lim kafedrası mustaqil izlanuvchisi

BRAYL YOZUVIDA MUSIQA TA'LIMI: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TEKNOLOGIYALAR

(ko'zi ojiz bolalar uchun musiqa: bilim, amaliyot, ijodiy, autentlik misolida)

Annotatsiya. "Brayl tizimidan foydalangan holda musiqa ta'limi: pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar" (Ko'zi ojiz bolalar uchun musiqa: bilim, amaliyot, ijodkorlik, haqiqiylik), o'quv qo'llanmasi ko'zi ojizlar va mutloq ko'zi ojizlarni tarbiya vositasini rivojlantirishda tiflopedagogika va tiflopixologiya nazariyasining o'rni va ahamiyati uslubida yoritilgan bo'lib, o'quvchilarni kreativ ijrochilik kompetentligini shakllantirish tamoyillarining boshlang'ich musiqa nazariyasi elementlariga qaratilgan. Bunda; Xalqaro ko'zi ojiz va mutloq ojizlarda psixologik differensiyalarning -inishlari va tiflopedagogik metodlarning musiqiy-nazariy omilari kontekstida o'rganilgan va musiqada tiflopedagogika va tiflopixologiya tarbiya vositasini rivojlantirishdagi autentlik o'rni va ahamiyati asoslangan.

Shuningdek, Musiqiy faoliyatda ko'zi ojiz (xira) va (Mutloq ozij) bolalarni kognitiv jarayonlarini tarbiyalashda nazariy va amaliy metodlari ishlab chiqilgan va ko'zi ojiz va mutloq ojiz bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlanishi bilan tom ma'noda mul'timedia (Sibileus) dasturlari vositalaridan foydalanishning ilg'or tajribalari qo'llanilgan va boshlang'ich sinf Maktab musiqa darsliklarini brayl yozuvida yaratish texnologiyalarining zamonaviy uslublari nazariy metodlari ilk marotaba o'zbek modulida ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Brayl yozuvi, tiflopedagogika, inklyuziv ta'lim, musiqa darsliklari, innovatsion texnologiyalar.

МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ПО ШРИФТУ БРАЙЛЯ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ

**(Музыка для слепых детей: на примере знаний, практики, творчества,
аутентичности)**

Аннотация. Учебно-методическое пособие «Музыкальное образование с использованием системы Брайля: педагогические подходы и технологии» (Музыка для слепых детей: знания, практика, творчество, аутентичность) посвящено роли и значению теории тифлопедагогики и тифлопсихологии в разработке средств обучения слепых и полностью слепых, а также элементам элементарной теории музыки, принципам формирования творческой исполнительской компетентности учащихся. В этом; Международное исследование психологических различий слабовидящих и полностью слепых в контексте музыкально-теоретических факторов и тифлопедагогических методов базируется на роли и значении аутентичности в развитии образовательного инструментария тифлопедагогики и тифлопсихологии в музыке.

Также разработаны теоретические и практические методы воспитания познавательных процессов слепых и полностью слепых детей в музыкальной деятельности, применены передовые методы использования мультимедийных (Sibileus) программных средств для выявления психолого-педагогических особенностей слепых и полностью слепых детей, а современные методы создания учебников музыки для начальной школы шрифтом Брайля имеют важное значение, поскольку они впервые разработаны на узбекском языке.

Ключевые слова: система Брайля, тифлопедагогика, инклюзивное образование, учебники музыки, инновационные технологии.

MUSIC EDUCATION IN BRAILLE: PEDAGOGICAL APPROACHES AND TECHNOLOGIES

(Music for Blind Children: on the example of knowledge, practice, creative, Autension)

Abstract. The teaching aid "Music education using the Braille system: pedagogical approaches and technologies" (Music for blind children: knowledge, practice, creativity, authenticity), is devoted to the role and significance of the theory of typhlopedagogy and typhlopsychology in the development of teaching aids for the blind and completely blind, as well as elements of elementary music theory, principles of developing students' creative performing competence. In this; International study of psychological differences between visually impaired and completely blind people in the context of musical-theoretical factors and typhlopedagogic methods is based on the role and significance of authenticity in the development of educational tools of typhlopedagogy and typhlopsychology in music.

Theoretical and practical methods of developing the cognitive processes of blind and completely blind children in musical activities have also been developed, advanced methods of using multimedia (Sibileus) software have been applied to identify the psychological and pedagogical characteristics of blind and completely blind children, and modern methods of creating music textbooks for primary school in Braille are of great importance, since they were developed for the first time in the Uzbek language.

Keywords: Braille system, typhlopedagogy, inclusive education, music textbooks, innovative technologies.

“Brayl tizimidan foydalangan holda musiqa ta’limi: pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar” (Ko’zi ojiz bolalar uchun musiqa: bilim, amaliyot, ijodkorlik, haqiqiylik), o’quv qo’llanmasi, ko’zi ojiz bolalar maxsus maktab internatlarining boshlang’ich sinf o’quvchilariga musiqa savodini o’rgatish maqsadida tayyorlandi.

O’quvchilarda badiiy va ijodiy didni tarbiyalash va rivojlantirishda umumta’lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarining ahamiyatiga etiboran tajriba-sinovlar samarasidan kelib chiqqan holda bajarilgan. O’quvchilar nafosat hissini, san’at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san’atdan bahramand bo’lishni dastlab maktablardan o’rganadilar. Zero, musiqa fani sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi. Musiqa o’sib kelayotgan yosh avlodni go’zallik olamiga olib kiradi. Ko’zi ojiz bolalar musiqani idrok etish orqali butun olamni hayolida gavdalantiradi. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega va axloqiy- nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishadi va musiqadan umrbod zavq oladi. Inson asosiy axborotlarni sakson, to’qson foizini ko’rish orqali qabul qiladi. Ko’zi ojiz insonlarda esa ko’rish qobiliyati o’rnini eshitish va idrok etish egallaydi. O’z-o’zidan ma’lumki ko’zi ojiz inson ahborotlarning asosiy qismini tinglash orqali qabul qiladi. Ko’zi ojiz bolalarni tarbiyalashda musiqani o’rnini boshqa narsa bilan alishtirib bo’lmaydi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa inson yuksak madaniyatli, sof qalbli, go’zallikni his eta oladigan bo’lishi kerak. Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy “Ilmlarning kelib chiqishi to’g’risida”gi asarida musiqaning sehr kuchi, mo’jizakor ta’siri, insonning ma’naviy kamoloti va salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyati haqida shunday fikr yuritgan: “Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o’z muvozanatini yuqotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo’lmagan odam xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun foydalidir. Chunki tana kasal bo’lsa, ruh ham so’nadi, tana to’siqqa uchrasa, ruh ham to’siqqa uchraydi. Shuning uchun musiqa cholg’ularida ijro etiladigan ovoz ta’sirida ruh sog’ayadi, uning yordamida esa tana sog’ayadi, ruh o’z kuchlarini tartibga solib, undan ozuqa oladi”. Abu Ali Ibn Sinoning ta’biriga ko’ra, “Musiqa- qalb

kuchlariga ruh baxsh etadi, uni ortiqcha hollardan tozalaydi. U insonda yaxshi kayfiyat, quvnoq hissiyotlar hosil qilgani bois shifobaxshdir”.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta‘lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 18.04.2022-yildagi PQ-209- qaroriga muvofiq:

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko‘zi ojiz va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab:

a) “Nurli maskan” maktablarining “Brayl” yozuvidagi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, badiiy hamda bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo‘nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo‘lgan ehtiyoji har olti oyda o‘rganiladi va shu asosda adabiyotlar ro‘yxati shakllantirib borilishi ta’kidlandi. Bunda, shakllantirilgan ro‘yxat asosida davlat buyurtmasini e‘lon qilish, adabiyotlarni ushbu yo‘nalishdagi ixtisoslashgan, yetarli moddiy-texnik bazaga hamda tajribaga ega bo‘lgan matbaa korxonalarida nashr etish hamda “Nurli maskan” maktablari ehtiyojidan kelib chiqib, taqsimot asosida tarqatish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

b) oliy ta‘lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo‘nalishlari bo‘yicha Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

“Nurli maskan” maktablarida san‘at (musiq) yo‘nalishini rivojlantirish, o‘quvchilarning san‘at yo‘nalishidagi iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san‘at maktablariga biriktirish ta’kidlandi.

Bolalarning san‘at va musiqa qiziqishini oshirish maqsadida “Nurli maskan” maktablarida “Doirachilar”, “Dutorchi qizlar”, “Folklor” guruhlarini tashkil qilinadi.

Ushbu qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘zi ojiz o‘quvchilarning musiqa savodini o‘rganish maqsadida ushbu qo‘llanma yaratildi.

Bunda, ko‘zi ojizlarga musiqa savodini o‘zlashtirish uchun o‘qituvchilar yoki ota – onalar yordami tavsiya etiladi.

Ko‘zi ojizlar bilan ishlovchi musiqa o‘qituvchilari, talabalar va ota-onalar uchun o‘quv metodik qo‘llanmada brayl alifbosidagi harflar va musiqiy nota belgilarini o‘rganish va uni amalda qo‘llash maqsadida ishlab chiqildi.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ichki dunyosini tushunishda brayl yozuvi bilan tanishish ota-onalar va talabalar uchun juda muhim. Musiqa savodini ko‘zi ojiz o‘quvchiga o‘rgatish jarayonida brayl alifbosini tushunmasdan musiqa yozuvini o‘rgatish qiyin bo‘ladi. Shu maqsadda o‘quv qo‘llanmaning birinchi bobida o‘zbek brayl alifbosi, brayl yozuvidagi belgilar berildi. O‘qituvchining o‘rnini bosuvchi har qanday shaxs (Ota-ona, repetitor, praktikant) o‘zida yetarli minimal savodga ega bo‘lishi lozim.

Ko‘zi ojiz bola ruhiyatidagi bo‘shliqlarni musiqa orqali to‘ldirish bolani dunyo qarashi shakllanishida va butun olamni tasavvur etishda beqiyos o‘rin kasb etadi.

Musiqa inson ruhiyatiga musiqiy tovushlar yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta’sir etadi, bolalarni quvontiradi, o‘ylantiradi, yaxshilikka, go‘zalikka yetaklaydi.

Musiqani to‘laqonli anglash uchun musiqani tinglash, his etish bilan bir qatorda musiqani o‘qiy olish ham muhim o‘rin kasb etadi. Hozirgacha bizning yurtimizda ko‘zi ojiz insonlar uchun musiqiy adabiyotlar nihoyatda kam. Maktab darsliklari esa umuman mavjud emas. Ko‘zi ojiz bolalar ham o‘z tengqurlaridan kam bo‘lmagan holda to‘laqonli yashash va ta‘lim olishlari kerak.

Ushbu mavzuning dolzarbligi, boshlang‘ich sinf musiqa darsligini ko‘zi ojiz bolalarga tadbiq etish orqali ularning musiqiy savodini boshqa sog‘lom bolalardan kam bo‘lmagan holda egallash va amalda tadbiq etishini ta’minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

133

1.Акшопина, А. Я. Васина Г. В.. Как научить глухого ребенка с тяжелыми нарушениями зрения чтению и письму по системе Брайля. ООО «ИПТК «Логос» ВОС» Москва – 2006.

2.*Abduqodirov A., Xaitov A., Rashidov R. Axborot texnologiyalari.- T.: «O‘qituvchi», 2002 y. "Uch kit"*

3.*Агеев Е.Д. Социальная интеграция и интеграционное мышление // Актуальные проблемы социально-трудовой реабилитации инвалидов по зрению. Минск, Польша, 1991 с.58-60.*

4.Агеев Е.Д. Система реабилитации слепых. М., ВОС, 1992 -84 с.

5.Акимускин В.М., Моргулис И. С. Основы тифлологии. Киев, Радянська школа, 1980. 61 с.

6.Bent B.Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education. UNЭSCO Institute for Infomation Technologis in Education.2013.ISBN 978-5-7777-0556-3.

7.Брайль Л. Музыка. В: Международная конференция по компьютерам, помогающих людям с особыми потребностями , 11, 2008 Линц, Австрия. Anais ... Линц: Springer-Verlag, 2008. p. 310-317.